

ILMIY-AMALIY JURNAL

Impact Factor: 5.394

ISSN 2181-0958

DOI 10.26739/2181-0958

YURISPRUDENSIYA

ЮРИСПРУДЕНЦИЯ | JURISPRUDENCE



7 JILD, 1

2026

YURISPRUDENSIYA

7 ЖИЛД, 1 СОН

ЮРИСПРУДЕНЦИЯ

ТОМ 7, НОМЕР 1

JURISPRUDENCE

VOLUME 7, ISSUE 1



Bosh muharrir:
Главный редактор:
Chief Editor:

SALAEV NODIRBEK
O'zbekiston Respublikasi Odil sudlov akademiyasi
professor, Yuridik fanlar doktori.

Bosh muharrir o'rinbosari:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

RUSTAMBEKOV ISLAMBEK
Toshkent davlat yuridik universiteti
Yuridik fanlar doktori, professor.

TAHRIRIY HAY'AT A'ZOLARI | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ |

Mas'ul kotib | Ответственный секретарь | Responsible secretary:

DAVRONOV ATOBEK
Toshkent davlat yuridik universiteti jinoyat-protsessual huquqi kafedrasida o'qituvchisi,
PhD yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori.

KARIMOV FARHOD
Siyosiy fanlar doktori, dotsent,
A. Avloniy nomidagi
Malaka oshirish instituti prorektori;

BAZAROVA DILDORA
Toshkent davlat yuridik universiteti
yuridik fanlar doktori, professor;

IMOMOV NURILLO
Toshkent davlat yuridik universiteti fuqarolik huquqi
kafedrasida mudiri, yuridik fanlar doktori, professor;

KHAIRIEV NODIRJON
O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
professori, yuridik fanlar doktori, dotsent;

NEMATOV JURABEK
Toshkent davlat yuridik universiteti
ma'muriy va moliyaviy huquq kafedrasida
dotsenti, yuridik fanlar doktori, dotsent;

ISMAILOV SHUKHRATJON
Toshkent davlat yuridik universiteti mehnat
huquqi kafedrasida mudiri, yuridik fanlar doktori;

KHABIBULLAEV DAVLATJON
Toshkent davlat yuridik universiteti fuqarolik
protsessual va xo'jalik protsessual huquqi kafedrasida
mudiri, yuridik fanlar nomzodi, professor;

OCHILOV KHASAN
Yuridik fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent;

IBROKHIMOV JAMSHID
Yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD);

GAFUROVA NOZIMAKHON
Toshkent davlat yuridik universiteti xalqaro
huquq va inson huquqlari kafedrasida mudiri,
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

NARZIEV OTABEK
Toshkent davlat yuridik universiteti xususiy
xalqaro huquq kafedrasida i.o. professori,
yuridik fanlar doktori;

MUSAEV BEKZOD
Toshkent davlat yuridik universiteti
konstitutsiyaviy huquq kafedrasida mudiri, yuridik fanlar
bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

MURATAEV SERIKBEK
Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti dotsenti,
yuridik fanlar nomzodi;

KAMALOVA DILDORA
Yuridik fanlar doktori, professor;

YUSUPOV SARDORBEK
Toshkent davlat yuridik universiteti ma'muriy va
moliyaviy huquq kafedrasida mudiri, yuridik fanlar bo'yicha
falsafa doktori (PhD), yuridik fanlar doktori, dotsent;

KHUJAEVA SHOKHJAKHON
Toshkent davlat yuridik universiteti
 intellektual mulk huquqi kafedrasida mudiri,
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD);

CHORIEVA DILBAR
dotsent, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD).

Page Maker | Верстка | Sahifalovchi: Xurshid Mirzaxmedov

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

1. Kiberjinoyatlarni huquqiy tartibga solish va intellektual mulk va mualliflik huquqini himoya qilishda prokuratura organlarining roli.....	5
Zaynabutdinov Said Axrorbek Ulug'bek o'g'li	
2. Haqiqatni aniqlash prinsipini takomillashtirish masalalari.....	20
Suyunboyev Ixom Oybek o'g'li	
3. Вояга етмаганлар пробацациясида давлат ва жамоат институтлари ҳамкорлиги.....	25
Абжалов Абдижаббор Махаммадиевич	
4. Dalillarning maqbulligini ta'minlashda tanib olish uchun ko'rsatish tergov harakatining ahamiyati.....	35
Ummatov Muhammadrasul Tursunovich	
5. Oilani mustahkamlash asoslari.....	43
Chuboyeva Ozodaxon Kuvonbekovna	
6. International legal aspects of the development of the trans-afghan transport corridor.....	49
Muhammadjonov Xojiakbar A'zamjon O'g'li, Firuza Khamdamova	
7. Терроризм билан боғлиқ жиноятларнинг юридик табиати.....	63
Нажмитдинов Нодирхон Амриллохонович	
8. Норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар ижросини таъминлаш этиш ва таъминлаш шакллари ва ўзига хос хусусиятлари.....	66
Якубов Мирзахид Турабаевич	
9. The Arbitration Agreement under Uzbek Law: Consent, Form, and the Limits of Party Autonomy.....	72
Nodirkhon Malikov	
10. Jamiyatda ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda ijtimoiy va huquqiy normalarning o'rni.....	86
Abdullayeva Firuza Sharipovna	
11. O'zbekiston Respublikasida kompyuter texnologiyalari vositasida sodir etiladigan jinoyatlarni oldini olishning huquqiy jihatlari.....	95
Ibroximova Malikaxon Alijon qizi Farruh Tashev Muzaffarovich	

JAMIYATDA IJTIMOYIY MUNOSABATLARNI TARTIBGA SOLISHDA IJTIMOIY VA HUQUQIY NORMALARNING O'RNI

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.20178036>

Abdullayeva Firuza Sharipovna

Buxoro davlat universiteti dotsenti

sharipovna14@gmail.com

Annotatsiya: Jamiyatda ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda ijtimoiy hamda huquqiy normalar muhim ahamiyat kasb etadi. Jamiyat odamlar uyushmasi asosida shakllangan murakkab ijtimoiy tizim bo'lganligi bois, unda tartib va intizomni ta'minlash uchun ma'lum qoidalar joriy etilgan. Ushbu qoidalar ikki turga bo'linadi: biri – jamiyat a'zolari tomonidan qabul qilingan ijtimoiy normalar, ikkinchisi esa davlat tomonidan belgilangan huquqiy normalardir. Mazkur maqolada ijtimoiy normalarning turlari va huquqiy normalarning o'ziga xos belgilariga e'tibor qaratilgan. Shuningdek, ularning jamiyat hayotidagi o'rni va ahamiyati tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: jamiyat, norma, davlat, obyekt, mezon, din, odat, korporativ, tenglik, erkinlik, adolat

РОЛЬ СОЦИАЛЬНЫХ И ПРАВОВЫХ НОРМ В РЕГУЛИРОВАНИИ ОБЩЕСТВЕННЫХ ОТНОШЕНИЙ

Абдуллаева Фируза Шариповна,

доцент Бухарского государственного университета

sharipovna14@gmail.com

Аннотация. Социальные и правовые нормы играют важную роль в регулировании общественных отношений. Общество представляет собой сложную социальную систему, основанную на объединении людей. Для обеспечения порядка и дисциплины в нём вводятся определённые правила. Эти правила делятся на два вида: социальные нормы, принимаемые членами общества, и правовые нормы, устанавливаемые государством. В статье

рассматриваются виды социальных норм и особенности правовых норм, а также анализируются их роль и значение в жизни общества.

Ключевые слова: общество, нормы, государство, объект, критерий, религия, обычай, корпоративные нормы, равенство, свобода, справедливость.

THE ROLE OF SOCIAL AND LEGAL NORMS IN THE REGULATION OF SOCIAL RELATIONS

Abdullaeva Firuza Sharipovna

Associate Professor, Bukhara State University

sharipovna14@gmail.com

Abstract. Social and legal norms play a crucial role in regulating social relations. Society is a complex social system formed on the basis of human association. To ensure order and discipline, specific rules are introduced within it. These rules are divided into two categories: social norms, adopted by members of society, and legal norms, established by the state. This article focuses on the types of social norms and the distinctive features of legal norms, as well as analyzes their role and significance in the life of society.

Keywords: society, norms, state, object, criterion, religion, custom, corporate norms, equality, freedom, justice.

Jamiyatda tartib-intizom va barqarorlikni ta'minlashda ijtimoiy hamda huquqiy normalar alohida ahamiyatga ega. Ular ijtimoiy hayotning poydevorini tashkil etib, insonlar va turli ijtimoiy guruhlarining xatti-harakatlarining maqbul yoki nomaqbul shakllarini belgilab beradi hamda manfaatlarning uyg'unlashuviga xizmat qiladi.

Ijtimoiy normalar sotsiologiya, huquqshunoslik, huquq falsafasi kabi qator ijtimoiy va gumanitar fanlarning tadqiqot ob'ekti sanaladi. Huquqiy va boshqa (axloqiy, ma'naviy, korporativ, estetik, diniy va boshqalar) normalar esa inson xulq-atvori hamda ijtimoiy munosabatlarni boshqaruvchi asosiy shakl va vositalar sifatida maydonga chiqadi.

Ular jamlangan holda har qanday jamiyatda a'zolar xatti-harakatini va o'zaro munosabatini tartibga solishga, insonlarning xulq-atvorini ijtimoiy zarur qoidalarga bo'ysundirishga bo'lgan obyektiv ehtiyojni ifodalaydi. Shu tariqa, ijtimoiy normalar kishilarning turmush tarziga, faoliyat usullari va shakllariga ongli hamda maqsadli ta'sir ko'rsatishning muhim omili sifatida amal qiladi.

“Ijtimoiy norma” tushunchasini anglashdan avval, avvalo “norma” so'zining ma'nosini bilib olish muhimdir. “Norma” atamasi o'zbek tiliga lotincha norma so'zidan kirib kelgan bo'lib, “me'yor”, “qoida”, “standart” kabi ma'nolarni anglatadi. U odatda biror narsaning, jarayonning yoki faoliyatning jamiyat tomonidan qabul qilingan o'lchovi, darajasi yoki miqdorini ifodalash uchun qo'llanadi.

Norma ijtimoiy norma maqomiga ega bo'lishi uchun bir qator mezonlarga javob berishi lozim. Xususan, u jamiyatning barcha a'zolari uchun umumiy bo'lishi, ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan bo'lishi, tarixiy rivojlanish jarayonida odamlarning ixtiyoriy sa'y-harakatlari natijasida shakllanishi, uzluksiz amal qilishi hamda jamiyatning madaniyati va ijtimoiy tuzilishiga mos kelishi zarur.

Ijtimoiy normalar – bu jamiyat tomonidan belgilangan xatti-harakatlar qoidalari va standartlari bo'lib, ular nimaning maqbul, nimaning nomaqbul ekanini ko'rsatib beradi. Ular asosan an'analar, madaniyat, diniy e'tiqodlar, axloqiy qadriyatlar va qonunchilik asosida shakllanadi. Normalar odamlarning turli vaziyatlardagi xatti-harakatlarini tartibga soladi va ularga yo'naltiruvchi ko'rsatmalar beradi. Masalan, ko'plab mamlakatlarda uchrashganda salomlashish, kattalarga hurmat ko'rsatish, jamoat joylarida navbatni saqlash odatiy ijtimoiy norma sifatida qoraladi.

Jamiyat a'zolari o'rtasidagi munosabatlar tartibi turli xil ijtimoiy normalar orqali belgilanadi va tartibga solinadi. Bunday normalarga axloqiy, diniy, odat, korporativ, an'ana va marosim normalarini kiritish mumkin. Har birining o'ziga xos xususiyatlari va qo'llanish doirasi mavjud:

1. Axloqiy normalar – insonlarning yaxshilik va yomonlik, adolat va adolatsizlik, sha'n, burch va qadr-qimmat haqidagi qarashlariga asoslanadi. Axloq ichki e'tiqodlarni tartibga soladi va xatti-harakatlarni axloqiy nuqtai nazardan

boshqaradi. Masalan, boshqalarni aldash yoki ularga zarar yetkazish ko'plab jamiyatlarda qonun bilan taqiqlanmagan bo'lsa-da, axloqiy jihatdan qoralanadi.

2. Diniy normalar – Xudoga ishonish va diniy aqidalarga asoslangan holda shakllanadi. Ular dindorlar hayotida muayyan xatti-harakatlar qoidalarini belgilab, ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi.

3. Odat normalari – insonlarning hayotiy ehtiyojlari natijasida vujudga kelgan, muntazam takrorlanadigan va barqarorlashgan xatti-harakatlar me'yorlaridir. Masalan, oilada birgalikda ovqatlanish yoki qo'shnilar bilan yaxshi munosabatda bo'lish odat normalariga kiradi.

4. Korporativ normalar – ma'lum bir jamoa yoki tashkilot doirasida amal qiladi. Ular mehnat, tadbirkorlik, kasbiy yoki ijtimoiy maqsadlarni amalga oshirish uchun belgilangan qoidalar bo'lib, intizom va tartibni ta'minlaydi.

5. An'ana normalari – ijtimoiy hayotning barqaror qoidalari bo'lib, milliy-madaniy, etnografik yoki kasbiy sohalarida namoyon bo'ladi. Ular muomala va muloqot shakllarini tartibga soladi. Masalan, Yaponiyada salomlashayotganda ta'zim qilish odob hisoblanadi, G'arb mamlakatlarida esa qo'l berib ko'rishish qabul qilingan.

6. Marosim normalari – muayyan hodisa yoki voqealar bilan bog'liq bo'lib, turli marosim va rasm-rusumlarni tartibga soladi. Masalan, nikoh marosimlari, milliy bayramlar yoki diniy udumlar shular jumlasidandir.

Huquqiy normalar – bu davlat tomonidan ruxsat etilgan, adolat va oqilonalik g'oyalarini rasman mustahkamlovchi umummajburiy qoidalardir. Ularning eng muhim xususiyatlaridan biri buzilishi yuridik javobgarlikka olib kelishidir. Shu bois huquqiy normalar ijtimoiy normalarning muhim turlaridan biri sifatida boshqa normalar bilan o'xshashlikka ega bo'lsa-da, o'ziga xos jihatlari bilan ham ajralib turadi.

Masalan, ko'pgina mamlakatlarda mast holda transport vositasini boshqarish noqonuniy hisoblanadi va bunday huquqbuzarlik jarima yoki haydovchilik guvohnomasidan mahrum etish kabi jazo choralariga sabab bo'ladi. Xususan, O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 131-moddasiga ko'ra, haydovchining transport vositasini alkogolli ichimlik, giyovand modda ta'sirida yoki boshqa tarzda mast holda boshqarishi — transport vositasini

boshqarish huquqidan 1 yil 6 oydan 3 yilgacha muddatga mahrum qilish va bazaviy hisoblash miqdorining 25 baravari miqdorida jarima qo'llashga sabab bo'lishi qat'iy belgilangan.

Huquq (yuridik ma'noda) – bu davlat tomonidan himoya qilinadigan, o'zida erkinlik, tenglik va adolat tamoyillarini mujassam etgan hamda ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan umummajburiy xulq-atvor qoidalari yig'indisidir.

Huquq normasi – bu davlat tomonidan o'rnatiladigan yoki ma'qullanadigan, muayyan shaklda ifodalanadigan hamda ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan umummajburiy xulq-atvor qoidasidir. U boshqa ijtimoiy normalardan farqli ravishda huquqiy kuchga ega bo'lib, davlat tomonidan ta'minlanadi va kafolatlanadi.

Huquq normasining asosiy belgilari quyidagilardan iborat:

1. Irodaviy xarakterga egaligi. Huquq normasi jamiyatning davlat irodasi, manfaatlari va maqsadlarini ifodalaydi. Bu iroda ijtimoiy voqelikning ijtimoiy-iqtisodiy, milliy, ma'naviy, tabiiy va boshqa shart-sharoitlari bilan uzviy bog'liq bo'ladi.

2. Normativligi. Huquq normasining normativlik xususiyati shundan iboratki, u jamiyat rivojlanishining muayyan bosqichida tipik va barqaror holatda bo'lgan munosabatlarni tartibga soladi. Shuningdek, u o'zining takroriyliigi va umumiyliigi bilan ajralib turadi.

3. Davlat bilan o'zaro bog'liqligi. Huquq normalari davlat tomonidan o'rnatiladi, ma'qullanadi, o'zgartiriladi yoki bekor qilinadi. Shu bilan birga, davlatning jamiyat hayotidagi faoliyati ham huquq normalari bilan chegaralanadi va tartibga solinadi. Ularning bajarilishi davlatning majburiy kuchi bilan ta'minlanadi.

4. Umummajburiyligi. Huquq normalari barcha huquq subyektlariga qaratilgan bo'lib, ularni barchaning bajarishi majburiy hisoblanadi.

5. Rasmiyligi va shaklan aniqligi. Huquq normasi umumijtimoiy iroda sifatida davlat tomonidan qabul qilingan rasmiy yuridik hujjatlar shaklida (normativ-huquqiy hujjatlar, normativ shartnomalar va boshqalar) ifodalanadi. Bundan tashqari, u boshqa

ijtimoiy normalardan farqli ravishda muayyan rekvizitlarga ega bo‘ladi (qabul qilingan vaqti, joyi, ro‘yxat raqami, hujjat nomi va boshqalar).

6. Tizimlilik. “Tizim” so‘zi yunoncha *systeme* atamasidan olingan bo‘lib, o‘zbek tilida “yaxlitlik”, “qismlardan tarkib topgan tuzilma” ma’nolarini bildiradi. Ushbu belgi huquq normasining o‘zaro bog‘liq tarkibiy qismlardan iborat bo‘lib, ular mantiqiy izchillik va o‘zaro mutanosiblikda amal qilishini anglatadi. Ya’ni, huquq normasi alohida qoida sifatida emas, balki yaxlit huquqiy tizimning bir bo‘lagi sifatida faoliyat yuritadi.

Huquq normalari o‘ziga xos xususiyatlar majmuiga ega bo‘lgan ijtimoiy normalar tizimida alohida o‘rin tutadi. Bu quyidagi jihatlarda yaqqol namoyon bo‘ladi:

➤ Kelib chiqishi. Jamiyat bilan birga shakllangan ijtimoiy normalardan farqli ravishda, huquqiy normalarning kelib chiqishi bevosita davlatning paydo bo‘lishi bilan bog‘liq. Ilmiy qarashlar turlicha bo‘lsa-da, ko‘plab olimlar huquq ilk davlatlar Qadimgi Misr va Shumer davrida shakllanganini ta’kidlaydilar.

➤ Majburiylik darajasi (amal qilish). Ijtimoiy normalarga rioya qilish ko‘proq ichki e’tiqod va ixtiyoriylikka tayanadi, huquqiy normalarga amal qilish esa umummajburiydir.

➤ Himoyalani darajasi. Ijtimoiy normalar buzilganda odatda jamoatchilik qoralashi, obro‘-e’tibordan mahrum bo‘lish kabi ijtimoiy sanksiyalar qo‘llanadi. Huquqiy normalarni buzish esa fuqarolik, ma’muriy, intizomiy yoki jinoiy yuridik javobgarlikka olib keladi.

➤ Rivojlanish dinamikasi. Ijtimoiy normalar asta-sekin, evolyutsion tarzda shakllanadi; huquqiy normalar esa siyosiy-iqtisodiy ehtiyojlardan kelib chiqib qisqa muddatlarda qabul qilinishi, o‘zgartirilishi yoki bekor qilinishi mumkin.

➤ Tavsif darajasi (aniqlik). Ijtimoiy normalar odatda umumiy ko‘rsatmalarni beradi, huquqiy normalar esa rasmiy-huquqiy hujjatlarda aniq va batafsil — sanksiya mexanizmlari bilan birga ifodalanadi.

Rus huquqshunosi D.F. Ishmayevning fikricha: “Ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solish tizimida ijtimoiy normalar hozirgi davrda alohida ahamiyat kasb etmoqda. Chunki davlat hokimiyatining turli darajalarida va qonunchilik

doirasida jamiyatdagi barcha ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish imkoni mavjud emas”.

Boshqa bir qator huquqshunoslar esa huquqiy me'yorlarning vazifasini jamiyat ichidagi keskin ijtimoiy to'qnashuvlarni yumshatish hamda axloqiy normalar tizimi bilan ta'minlangan o'z-o'zini tartibga solish uchun zarur sharoit yaratishdan iborat, deb e'tirof etadilar.

Bugungi kunda jamiyat hayotida ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda shaxslar va turli guruhlarining xatti-harakatlarini boshqaruvchi, aniq belgilangan normalarsiz tasavvur qilish mumkin emas. Bunday normalar yig'indisi jamiyatning me'yoriy tizimini tashkil etadi. Unda huquq markaziy element sifatida namoyon bo'lib, boshqa normalardan rasmiy hujjatlar asosida belgilanishi, umummajburiy ijro etilishi va davlat tomonidan majburlash kuchiga egaligi bilan ajralib turadi.

Bundan tashqari, globallashtirish jarayoni va zamonaviy axborot oqimida tarqatilayotgan ma'lumotlarning qaysi biri to'g'ri, qaysi biri noto'g'ri ekanini aniqlaguncha, inson ongi ko'pincha birinchi tarqalgan xabarga moslashib qoladi. Ana shunday sharoitda huquqiy normalar ijtimoiy jarayonlarni boshqarish, inson huquq va erkinliklarini himoya qilish hamda barqaror rivojlanishni ta'minlash vositasi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Qonun jamiyat hayotining barqarorligini ta'minlab, adolatli huquqiy muhitni yaratadi.

Jamiyat ijtimoiy va huquqiy normalarsiz yashay olmaydi. Chunki ular insonlarning o'zaro munosabatlarini tartibga soladi, intizomni saqlashga yordam beradi va ijtimoiy hayotning muvofiqligini ta'minlaydi. Bu normalar jamiyatdagi munosabatlarni tartibga solishda o'zaro chambarchas bog'liq bo'lib, bir-birini to'ldirib turadi. Shu sababli ulardan birini ikkinchisidan ustun qo'yish yoki butunlay ajratib qo'yish mumkin emas. Ular uyg'un holda mavjud bo'lgandagina jamiyatda barqarorlik va taraqqiyot yuz beradi.

Ijtimoiy va huquqiy normalar doimiy ravishda yangilanib boradi. Masalan, COVID-19 pandemiyasi davrida jamoat joylarida niqob taqish va ijtimoiy masofani saqlash kabi yangi qoidalar ijtimoiy normalar sifatida shakllandi. Bu holat shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy normalar har qanday ijtimoiy tizimning asosi bo'lib, ular tartib

va barqarorlikni ta'minlaydi, insonlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni boshqaradi va jamiyat taraqqiyotiga hissa qo'shadi. Shunday ekan, ushbu normalarni tushunish va ularga hurmat bilan yondashish har bir insonning jamiyatda o'z o'rnini topishiga, umumiy manfaatlarga hissa qo'shishiga xizmat qiladi. Doimiy o'zgarib borayotgan sharoitda esa nafaqat mavjud normalarga rioya qilish, balki ularni qayta ko'rib chiqish va rivojlantirishga tayyor bo'lish ham muhimdir.

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy va huquqiy normalar jamiyatning ajralmas tarkibiy qismi bo'lib, barqaror rivojlanish va adolatni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Shu bois jamiyat a'zolarida huquqiy madaniyatni yuksaltirish, qonunga nisbatan hurmat va mas'uliyat hissini shakllantirish zamonaviy davlat va jamiyat oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biridir.

Иктибослар/Сноски/References:

1. Sh.A.Sa'dullayev Davlat va huquq nazariyasi Darslik, Toshkent, "Yuridik adabiyotlar publish" 2021, 123-125bet.
2. А.Г. Нагапетова, А.С. Веретельникова, И.А. Егорова Нормативность общественного сознания Вестник Армавирского государственного педагогического университета. 2022. № 3 стр 145.
3. Д.Ф. Ишмаев О значении социальных норм в системе правового регулирования общественных отношений // Право и государственность № 1 (2) 2024 13 стр .
4. B.S. Nersesyans huquq falsafasi Qisqacha o'quv qo'llanma "Adolat", Toshkent, 2003. 93-bet
5. B.S. Nersesyans huquq falsafasi Qisqacha o'quv qo'llanma "Adolat", Toshkent, 2003. 93-bet
6. <https://www.napishem.ru/spravochnik/sotsiologiya/soczialnye-normy/socialnye-normy-i-ih-funkcii.htm>
7. <https://cyclowiki.org/wiki>
8. https://bstudy.net/748459/pravo/pravo_sisteme_sotsialnyh_norm_pravo_moral

9. <https://www.napishem.ru/spravochnik/sotsiologiya/soczialnye-normy/socialnye-normy-i-ih-funkcii.htm>

10. [Wikipediya](#)

YURISPRUDENSIYA

7 ЖИЛД, 1 СОН

ЮРИСПРУДЕНЦИЯ

ТОМ 7, НОМЕР 1

JURISPRUDENCE

VOLUME 7, ISSUE 1

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадqiqот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000